

## SOHA XODIMLARINING BILIM DARAJASI SINOVDAN O'TKAZILMOQDA



### SOHA XODIMLARINING BILIM DARAJASI SINOVDAN O'TKAZILMOQDA

2019 yil 7 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida" gi qarori qabul qilingan.

Qarorga muvofiq mazkur tadbirni o'tkazishdan asosiy maqsad attestatsiya ta'lim tashkilotining faoliyatini baholashda davlat nazoratining asosiy shakli hisoblanadi va ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta'lim standartlari hamda davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

So'x tumani Sharqobod mahallasidagi 14-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida soha mutaxassislarining attestatsiya va akkreditatsiyasi bo'lib o'tdi. Mazkur tadbirda tumandagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutasaddilari ishtirok etdi.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-01-24 14:32:10